

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИ ВА ҚИШЛОҚ
ХЎЖАЛИГИ ЭКИНЛАР ҲОСИЛДОРЛИГИНИ
ОШИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ-ИННОВАЦИОН
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ, МУАММО ВА ЕЧИМЛАР**

мавзусидаги

Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман

ТЎПЛАМИ

Бухоро, 2021 йил 19-20 ноябрь

O'ZBEKISTONDA LANDSHAFTSHUNOSLIK FANI VUJUDGA KELISHINING IJTIMOIY OMILLARI

M.K.Ergasheva

Buxoro davlat universiteti

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev ham 2020 yilning 29 dekabr kuni parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda tabiiy fanlar fundamental asos bo'lgani haqida to'xtalib, keyingi yillarda O'zbekistonda ko'pdan beri o'z holiga tashlab qo'yilgan ilmiy maktablarni tiklash va jahon faniga integratsiyalashtirish masalasini alohida ta'kidlab o'tishi alohida e'tiborga molikdir.

XXI asrga kelib, insonlarning tabiiy resurslarga talabi tez sur'atlarda oshdi. Natijada tabiiy resurslar zahirasini kamayib ketishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga, tabiat komponentlari orasidagi mutanosiblikning buzilishiga, qolaversa o'zining salomatligiga va hayoti uchun xavfli bo'lgan salbiy oqibatlarining yuzaga chiqishiga ham sababchi bo'lib qolmoqda. Mazkur yo'nalishda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish, sohalarda chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o'sishning poydevorini yaratish uchun yo'nalishlarda keng qamrovli ishlarni amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev o'z ma'ruzasida *“* Mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham — bularning barcha- barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liq. Bunda esa, tabiiyki, ajdodlarimiz faoliyati, hayoti, o'lmas merosi yuksak marralarni ko'zlagan yoshlarimiz uchun ibrat maktabidir”⁵ deb - ta'kidladi.

Bugun mamlakatimizda ham landshaftlar va ularni oqilona tashkil etish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Bugun bu muammolar yanada serqirra, murakkab va har doimgidek dolzarbdir. Ularning turli jabhalari bilan bir qator tabiiy, ijtimoiy va texnika fanlari o'z tadqiqot predmeti doirasida shug'ullanmoqda. Ammo ularning birortasi bu muammoni to'laligicha qamrab ololmaydi. U fanlararo muammodir. Bu borada landshaftshunoslikning o'rni va ahamiyati o'ziga xosdir. Chunki landshaftshunoslik inson yashaydigan va o'z xo'jalikdagi faoliyatini olib boradigan hududlarning tabiiy sharoitini, tabiiy komponentlari orasidagi o'zaro aloqadorliklarni, o'zaro ta'sirlarni shu jumladan, inson faoliyatining ta'sirini ham o'rganadigan fandır. Shuning uchun landshaft tushunchasi va ta'limotini yaratilishi, rivojlantirilishi bilan bog'liq tadqiqotlarda faol bo'lgan olimlarning faoliyatini o'rganish nihoyatda dolzarbdir. Chunki bu fan kishilik jamiyatining amaliy talablariga bog'liq holda shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Ma'lumki, landshaftshunoslik tabiiy geografiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Geografiya boshqa fanlar qatori o'zining rivojlanishi davomida juda ko'p ilmiy nazariy kashfiyotlarni qo'lga kiritgan fandır. Shunday nazariy kashfiyotlardan biri landshaft haqidagi ta'limotning yaratilishi, ya'ni tabiatda inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat-"landshaft"lar mavjudligini kashf qilinishidir.

Landshaft haqidagi ta'limotning ilmiy-g'oyaviy asosi buyuk **tuproqshunos olim V.V.Dokuchayev**ning ilmiy faoliyati bilan bog'liq. U tuproqni o'rganishda genetik holda yondashadi va tuproqning tarkibi xossalari, uning rel'yef, iqlim, o'simlik, tog' jinslari tarkibi bilan bevosita bog'liqligini asoslaydi. V.V.Dokuchayev tuproqni jonsiz va jonli (biokos) tabiatning modda va energiya almashinuvi, evolyusiyasi natijasida hosil bo'lgan tabiiy-tarixiy hosila degan xulosaga keladi.

V.V.Dokuchayevning shogirdi L.S.Berg rus olimlari ichida birinchi bo'lib landshaftga aniq ta'rif beradi. L.S.Berg 1913 yilda "tabiiy landshaftlar deganda rel'yef, iqlim, o'simlik va tuproq qoplarning yetakchi belgilari o'xshashligi bilan ajralib turadigan joylarni tushunmoq lozim" deb yozadi.

⁵ 2020 йил 29 декабрда Президент Шавкат Мирзиёевнинг олий мажлисга ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси.

Bu nazariy g'oya geografiya tarixida yuksak mantiqiy umumlashma - xulosa bo'lib maydonga keldi va tabiatning har bir unsuri landshaftning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini tan olishga undadi. Bu esa o'z navbatida "landshaft" tabiiy geografik tarmoq fanlarni bog'lab turuvchi tabiiy tizim ekanligini oshkora qildi. Landshaft haqidagi ta'limotning nazariy va amaliy asoslari takomillashib keldi. Tabiiy landshaftlarni tizimlar nazariyasi asosida o'rganishni boshlab bergan olimlardan biri V.B.Sochava 1963 yilda landshaftga mazmundosh bo'lgan "geotizim" atamasini fanga kiritdi. Keyinchalik bu atama qator etakchi landshaftshunoslar tomonidan tan olindi.

Tizimlar nazariyasi asosida landshaftlarni o'rganish landshaftshunoslik fanining rivojlanishi uchun yangi davrni ochib berdi, uni amaliyot bilan bog'lanishi imkoniyatlari oydinlashdi.

V.S.Preobrajenskiy "landshaft eng avvalo geografik qobiqning nisbatan bir butunlikka ega bo'lgan bo'lagidir"... u geografik qobiqning eng muhim xossalarini o'zida mujassam qiladi", deb ta'kidlaydi.

Albatta, landshaft o'z chegarasi, negizi, yoshi resurs imkoniyatlariga ega bo'lgan hududiy tizimdir.

"Landshaftni biz tabiiy jarayonlarning samarasigina deb emas, balki ana shu o'zaro ta'sirni amalga oshiruvchi tizim deb tushunmog'imiz lozim", deb qayd qiladi M.A.Glazovskaya. Landshaft tabiiy qonuniyatlar asosida yashaydigan o'z-o'zini boshqaradigan, tiklaydigan, moddiy va nomoddiy resurslar yaratuvchi, to'plovchi va sarflovchi hududiy tizimdir. Boshqacha qilib aytganda, landshaftlar tabiiy resurslarning hududiy majmuasidir. Demak, insoniyatning yashashi, xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoit va resurslarning aniq makoni bor. Bular turli ko'lamdagi landshaftlardir.

Landshaft haqidagi ta'limot (landshaftshunoslik)ni geografiyaning tarmoq fanlardan farqi shuki, u landshaftni tarkibiy qismlarining barcha xossalarini emas, balki landshaftning bir butunligi xossalarini o'rganadi.

Landshaft doirasidagi bir komponent landshaftning boshqa barcha komponentlari ta'sirida bo'ladi. Landshaftning bir resursdan noto'g'ri foydalanish undagi ikkinchi resursga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, landshaftni integral resurs timsoli yoki tabiiy resurslar majmui deb tushunmoq lozim.

80	З.Қ.Чориева, И.Хайдарова, К.Исаева Гидромелиоратив тизимлардан фойдаланиш услубларини илмий асослаш.	169
81	М.К.Ergasheva. O‘zbekistonda landshaftshunoslik fani vujudga kelishining ijtimoiy omillari.	174

V ШЎБА

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ЭКИНЛАРИ МАХСУЛОТЛАРИГА ИШЛОВ БЕРИШ ҲАМДА УЛАРНИ САҚЛАШ ВА ҚАЙТА ИШЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ, ЯНГИ ТЕЖАМКОР ТЕХНОЛОГИЯ ВА ИННОВАЦИОН ОМИЛЛАРНИ ИШЛАБ ЧИКИШ ВА ЖОРИЙ ЭТИШ

82	Ғ.Ғ. Парпиев, З. М.Жумабоев. Озуқабоп экинларни тупрок унумдорлигига таъсири.	176
83	М.Qosimov, J.O.No‘monov. Urug‘lik chigitlar unuvchanligiga - bioenergiya bioo‘g‘iti bilan ishlov berishning ta’siri.	177
84	Ғ.Jo‘rayeva, M.Jo‘rayeva, S.Botirov. Issiqxonalarni yangicha isitish uslublari.	178
85	Ш. Ш.Акрамов, Ф. Б.Вахобова. Значение производства сахарной свеклы в нашей стране.	179
86	Д.У.Ғофуров. “Такрорий маккажўхоридан сўнг экилган ғўзанинг минерал ўғит меъёрларига боғлиқ ҳолда ўсиш, ривожланиши ва курук модда тўплашига таъсири” (тошкент вилояти мисолида).	181
87	R.Yunusov, F.Ganieva, Sh.Ro‘ziev, I.Yu.To‘xtaev. Intensiv pakana nok bog‘lari tuprog‘ining fizikaviy-kimyoviy xossalari va rejimining tasnifi.	183
88	R.Yunusov, F.A.Ganieva, O.O.Orifov. Intensiv bog‘larda pakana noklarni tejamkor innovatsion texnologiyalar asosida parvarishlash omillari.	184
89	F.Jo‘rayeva, A.Qurbonov, A.Xaytaliyev. Issiqxonalarda tomchilatib sug‘orish tizimini tashkil etishning samaradorligi.	185
90	Г.Т.Джалилова, А.Қ.Жетписбаева. Microsoft access муҳитида тупрокларнинг атрибутив маълумотлар базасини яратиш.	186
91	R.Yunusov, F.A.Ganieva, N.N.To‘raeva, M.N.Abdullaeva. Nav-payvandtag kombinatsiyasi va ko‘chat qalinligining intensiv olma daraxtlarining o‘shish, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri.	187
92	I.J.Sulaymonov, M. A.Azimjonova. Qizilmiya – radices glycyrrhizae o‘simligining dorivorlik xususiyatlari	188
93	Ш.Т.Тўхтаев, М.Артикова. Ток ўсимлигида хафли ун-шудринг касалигига қарши олтин гугуртли препаратларни қўллаш.	190
94	Ғ.Қ Абдувоҳидов. Кластер тизимида сифатли ғўза уруғларини етиштиришда амалдаги давлат стандартларининг ўрни.	192
95	Д.К.Бегимова. Кластерлар – ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг муҳим омили.	193
96	Ш.Х.Тўхтаев, Б.Турсунов, З.Алимова. Браконнинг биологаторияда кўпайиши ва қишлоқ хўжалик экинларида энтомофаг сифатида қўлланилиши.	195
97	Ш.Х.Тўхтаев, М.Ф.Хайруллаев. Бухоро вилоятида фитонормусни биологияси ва ҳаёт кечириши.	198
98	С.Қ. Махаммадиев, Ю.А. Усманова. Ғўза ўсимлиги вегетациясининг бошланғич давларида барг сатҳининг турлича шаклланишини янги истиқболли ғўза навлари мисолида ўрганиш.	200
99	А.А.Қодиров, З.Қ.Чориева, Л.Иззатулаев, Ж.Қўзибоев. Ингичка толали “термиз-202” ғўза навида маҳаллий дефолиантларнинг самарадорлиги .	202
100	З.М Жумабоев, Ғ.Ғ Парпиев, Тупрок унумдорлигига такрорий экилган соя ва оралик экинларини таъсири	204
101	Х.Н.Атабаева, Х.А. Идрисов. Мош (phaseolus aigeis piper) навларининг симбиотик фаолиятини типик бўз тупроклар шароитида тадқиқ этиш натижалари.	207
102	Ш.С.Козубаев, Ғ.Қ.Абдувоҳидов, Н.Абдурахманова. Ғўза нави ва уруғлари бозорини ўрганиш ва истиқболларни белгилаш.	209
103	Г.Э.Оразбайева, Я.А.Бабаев. Районлашган, истиқболли ва янги ғўза навларининг морфоҳўжалик белгилари ва жорий этилиши.	211
104	Ш.Х.Тўхтаев, М.Хайруллаев. Влияние агроприемов возделывания хлопчатника на снижение поврежденности растений озимой совкой.	212